



UDK: 811.512.133+81'

Nasiba RO'ZIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: nasibarozziyeva20@gmail.com

ToshDO'TAU dotsenti, PhD D.Muhammadiyeva taqrizi asosida

NATIONAL SPECIFIC WORDS AND RELATED TO SPORTS

Annotatsion

The content of the choice of this topic is that the uniqueness of this topic is that uniqueness of the relatives, their types and the lifestyle, everyday life, culture, socio-historical development of each nation, and the sports that are alien to other nations or later assimilated wider coverage of related lexical units. As well as dialectal words, which are considered one of the most important means of enriching the general literary lexicon, in particular, talking about the naming of national sports realities in the Oghuz dialect. Explaining the concept of dialect, introducing the information about the regions in which the Oghuz dialect is spread.

Key words: Realism, types of realism, sports realism, names of sports realism in Oghuz dialect, concept of dialect, geography of distribution of Oghuz dialect.

ФАКТЫ О СПОРТЕ НА ОГУЗСКОМ ДИАЛЕКТ

Аннотация

Содержание выбора данной темы состоит в том, что своеобразие реалий, их типов и образа жизни, быта, культуры, социально-исторического развития каждого народа, а также видов спорта, чуждых другим народам или позднее ассимилировавших более широкий охват родственные лексические единицы. Также поговорим о диалектных словах, которые считаются одним из важнейших средств обогащения общелитературного лексикона, в частности, название национальных спортивных реалий на огузском диалекте. Разъяснение понятия диалекта об ознакомлении с информацией о регионах распространения огузского диалекта.

Ключевые слова: Реализм, виды реализма, спортивный реализм, названия спортивного реализма на огузском диалекте, понятие диалекта, география распространения огузского диалекта.

O'G'UZ DIALEKTIDA SPORTGA OID REALIYALAR

Annotatsiya

Ushbu mavzuning tanlanish mazmuni shundan iboratki, hozirgi vaqtda realiyalarning o'ziga xosligi, ularning turlari va har bir xalqning hayot tarzi, kundalik hayoti, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga xos bo'lgan va boshqa xalqqa yot bo'lgan yoki keyinchalik o'zlashgan sportga oid lug'aviy birliklarni kengroq yoritish. Shuningdek umumadaniy leksikani boyitib boruvchi eng muhim vositalardan hisoblanadigan dialektal so'zlar, xususan o'g'uz dialektida milliy sport realiyalarining nomlanishi haqida so'z yuritish. Dialekt tushunchasini izohlash, o'g'uz dialektining aynan qaysi hududlarda tarqalganligi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

Kalit so'zlar: Realialar, realiyalarning turlari, sport realiyalari, o'g'uz dialektida sport realiyalarining nomlanishi, dialekt tushunchasi, o'g'uz dialektining tarqalish geografiyasi.

Kirish. Jamiyat va insonlar hayot tarzi rivojlanib takomillashib borar ekan, u bilan birgalikda tilshunoslikda ham rivojlanish jarayonlari sodir bo'ladi. Tilshunoslikda til egalarining turli hududiy dialektlarga mansubligi, xususan, hududiy variativligi dialektologiya tomonidan o'rganiladi. Dialektal so'zlar tilni boyitib boruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tilning lug'at tarkibini to'ldirib, kengaytirib boruvchi asosiy manba bu shevalardan so'z olish hisoblanadi. Shu bois maqolamizda sportga oid realiyalarning o'g'uz dialektiga oid muqobilini ham berishga harakat qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqorida ta'kidlaganimizdek jamiyat rivojlanib borar, ekan tilda ham muntazam yangilanishlar, o'zgarishlar, rivojlanishlar, yangiliklar paydo bo'lib boraveradi. Bunga yaqqol misol yaqin yillar ichida tilshunoslik sohasida lingvokulturologiya, psixolingvistika, matn tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi, pragmalolingvistika, sotsiolingvistika kabi yangi yo'nalishlarning vujudga kelganligidir.

Shunday yangi yo'nalishlar doirasida lingvokulturologiyaning muhim tushunchalaridan biri realiyalardir. Realialarni lingvokulturologiyada muqobilsiz leksika doirasida o'rganiladi. Muqobilsiz leksika deganda ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan narsa va hodisalar tushuniladi.

L.S.Barxudarovning yozishicha: "Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobiliga ega bo'lmashidir"1.

Realia (lotincha) "real" – "moddiy", "haqiqiy narsalar" degan ma'noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realialarni boshqa o'xshash tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realialarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy va tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o'rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Realia tushunchasini dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar sifatida rus tarjimashunosligiga 1941-yil Andrey Feodorov kiritdi va ularni "realia so'zlar" deb atashni taklif qildi. A.V.Feodorov "realia" deganda "ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi", faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan so'zlar"ni tushunadi.

O.S. Axmanovning fikricha esa, realialar — moddiy madaniyatning predmeti hisoblanadi. Realia-so'z va realia-predmetning o'zaro farqli ekanini aytib o'tish lozim. Bir tilning leksik elementi sifatida «Realia» atamasi realia-so'z ma'nosida, belgi tarafidan esa realia-predmet hisoblanadi, u

tarjima adabiyotida keng tarqalgan. Realini terminologiya bilan adashtirib yubormaslik lozim: terminologiya – ilmiy adabiyotda ilmiy sohaga tegishli narsalarni belgilash uchun ishlatiladi va odatda juda aniq stilistik maqsadga xizmat qilish uchun faqat boshqa turdagi matnlarda qo'llaniladi. Badiiy adabiyot, ular keltiradigan ekzotik ko'rinish uchun realini yaxshi ko'radi.

Xorijiy til realiyalarida shunday so'zlar borki, ular tarjima vositasida boshqa tillarga kirib borgan va o'zlashib ketgan. Ruslardagi rubl realiyasi o'zbeklarda rubl bo'lib, o'zlashib ketgan. Shuningdek, Yevropadagi Euro o'zbek tilida Evro deb o'zlashtirilgan. Bu ham talaffuz qoidalari bilan bog'liq hodisa. Ruslardagi teploxod, poroxod, vezdexod kabi transport vositalari o'zbek tiliga ham aynan shu holda o'zlashganligini ko'rishimiz mumkin. Ular bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinmoqda. Bundan tashqari, pul birliklari, milliy taomlar yoki davlat tuzilishi bilan bog'liq so'zlar ham realiyalarga misol bo'la oladi. Ammo ular o'zlashma so'zlar ko'rinishiga o'tsa ham, o'zlarining milliy o'ziga xosligini yo'qotmaydi. Masalan, nemislarning markasi, amerikaliklarning dollari, o'zbeklarning oshi va hokazo.

Realialarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Geografik (fizik geografiya obyektlari);

2. Etnografik (kundalik hayot, din, san'at, madaniyat bilan bog'liq);

3. Ijtimoiy-siyosiy (ma'muriy-hududiy tuzilma, aholi guruhlari, hokimiyat organlari va boshqalar).

Geografik realialar odatda transkripsiya yoki transliteratsiya yordamida tarjima qilinadi. Masalan, Washington –Vashington (transliteratsiya), Miami –Mayami (transkripsiya). Ma'noga asoslangan tarjima kamroq qo'llaniladi. Masalan, Great Britain-Buyuk Britaniya.

Etnografik realiyalarga biror xalq turmush –tarzi va madaniyatiga oid tushunchalar kiradi. Masalan, etnik tushunchaga oid (kazak, ataman), o'lchov va pul birliklari (funt, frank, yuan, dirxam), san'at va madaniyat tushunchalari nomlariga oid (polvon, kimboku, kintsugi, lapar, devali). Ijtimoiy-siyosiy realialar transkripsiya va transliteratsiya yordamida hamda tasvirlash va analoglar tanlash orqali tarjima qilinadi: ma'muriy-territorial tuzilishga oid tushunchalar (guberniya, shtat, rayon, okrug v.k); hukumat organlari nomlari (Veche, Duma, Reyxstag, Oliy Majlis).

Shuningdek har bir xalq o'ziga xos realiyalarga egadir, ular milliy kolorit yorqin aks etib turadi. G.D.Tomaxinning fikricha, turli xil til va madaniyatlarni o'zaro solishtirganda, realialarni qo'llashda quyidagicha o'ziga xosliklarni belgilab olish imkonini beradi: 1. Realia faqatgina bir til jamoasigagina xosdir, boshqasida mavjud bo'lmaydi: koreyscha 온돌 (ondol) issiq pol, o'zbek tilida analogi mavjud emas yoki turk tilidagi babaanne so'zi masalan otaning onasini bildiradi, aneanne esa onaning onasini bildiradi. O'zbek tilida esa ota va onaning onalari alohida bir so'z bilan ajratilmaydi, bu so'zlarning analogi yo'q bo'lib, har ikkala so'z bitta "buvi" so'zi bilan ifodalanadi. 2. Realia ikkala til jamoasida bo'lishi mumkin, biroq birida qo'shimcha ma'noga ega bo'ladi: koreyscha 이모 (imo) xola, aynan ona tomonidan. 3. Turli xil jamiyatda o'xshash funksiyalarni turli xil realialar amalga oshiradi: koreyscha 배게(pege) o'zbekcha yostiq.

Realialarda, ayniqsa, til va madaniyatning bir-biriga yaqinlashuvi kuzatiladi: jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realialarning vujudga kelishi tilga mos keluvchi so'zlarni keltirib chiqaradi. Realialarning farqli jihati uning predmetlar tizimining o'ziga xosligidir. Realialar alohida kollektiv yoki muassasada ham chegaralangan doirasida bo'ladi. Realialar o'ziga xos va vaqtinchalik kolorit hisoblanadi.

Realialar o'zga tildagi matnni tushunishimiz uchun bizga kerak bo'ladigan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi.

Ma'lum bir xalq yoki elatning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy taraqqiyoti realialarning mohiyatiga, albatta, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun realialar to'g'risida bahs yuritganda, albatta, milliy o'ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasiga e'tiborsiz qarolmaymiz. Chunki realialar har qanday holatda ham bir vaqtning o'zida milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Bu esa ularga alohida munosabatda bo'lishlikni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Turli millatlarga xos realialar xususiyat va bajaradigan vazifasiga ko'ra bir-biriga juda o'xshab ketishi mumkin, lekin ular shunday o'ziga xos, nozik xususiyati boshqalarida takrorlanmasligi lozim. Xususan, uzoq tarixga ega bo'lgan sport madaniyati umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki har qanday zamonaviy sport turiga yo'l, milliy sport o'yinlaridan boshlanadi. O'zbek milliy sport turlari sportga oid realiyalarga misol bo'ladi. Masalan, chavandozlardan topqirlik va epchillikni talab qiluvchi ko'pkari (uloq) ot sporti musobaqasining bir turi miloddan avvalgi II-III asrlarning boshlarida shakllangan. Bu sport turi O'rta Osiyoda, xususan O'zbekistonda keng tarqalgan va qadimdan shu kungacha yetib kelgan tarixiy sport o'yini hisoblanadi. Boshqa turkiy tillarda "ko'pkari" nomining etimologik ma'nosi yo'qolib, an'aviy ravishda "ulak" nomi bilan atala boshlangan. Ko'pkari sport musobaqasida yuzlarcha chavandozlar orasiga echki yoki buzoqning tana go'shtini tashlaydilar, chavandozlar jasadni otdan tushmasdan ko'tarishga harakat qilishadi, vazifa olomondan qochish, ta'qibchilarga qarshi kurashishdir. Ko'pkari, avvalo, bayram, to'y va marosimlarda o'tkaziladigan musobaqa, o'yin bo'lib, unga yaqin-atrofdagi qishloqlardan chavandozlar jalb qilinadi, qoidaga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Natijalarga ko'ra g'oliblar nomi e'lon qilinadi, ularga sovg'alar (chorva mollari, kiyim-kechak, gilam, pul mukofotlari va boshqalar) topshiriladi. Ushbu o'yin ming yillar mobaynida o'zbek xalqi orasida shakllangan va milliy turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq realia hisoblanadi.

Olomon poyga - o'rta asrlarda eng yuqori rivojlanishga erishgan xalq poygasi. U, qoida tariqasida, bayram kunlarida o'tkaziladi. Bu sport o'yini xalq orasida haligacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Sport o'yini qoidasiga ko'ra chavandozlar otlarni egarlab, bir qatorga tizilishadi va signal bo'lishi bilan ma'lum bir joyga oldinga yugurishadi, keyin butun chopayotgan otliqlar ortga burilib qaytishadi, birinchi qaytgan chavandoz g'olib hisoblanadi.

Shuningdek 2,5 ming yillik tarixga ega bo'lgan, bugungi kunda ham xalq orasida mashhur bo'lgan yana bitta milliy sport realiyasi bu dorbozlikdir. Dorbozlik bu havoda muallaq turgan arqon ustida mahorat va tajribaga ega bo'lgan dorbozning langar yordamida muvozanatni saqlab yurishi va har xil harakatlarni bajarib ko'rsatuvchi milliy sport turi hisoblanadi. Dorbozlar asosan bayram va tantanlarda chiqish qiladilar.

O'zbek xalqida qadim o'tmishda paydo bo'lib, shakllangan bugungi davrga kelib butun yer yuziga ommalashib, xalqaro sport darajasiga ko'tarilgan milliy sport realiyasi bu kurash hisoblanadi. Bu sport turi o'g'uz shevasida harf almashinish fonetik hodisasiga uchrab, "go'rash" tarzida talaffuz qilinadi. Ushbu so'zning o'g'uz shevasi talaffuzida "k" undoshi - "g" undoshiga, "u" unlisi, "o" unlisiga aylanadi.

Bu qadimiy sport tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, kurash - sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi hisoblanadi. G'olib ishlatilgan usullar va maydondagi xatti-harakatlariga qo'yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo'g'ish, raqibga og'riq beruvchi usullar qo'llashga ruxsat berilmaydi. Rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqti 3 daqiqa qilib belgilangan. Ishlatilgan usullarga mos ravishda Xalqaro

kurash assotsiatsiyasi tomonidan "chala", "yonbosh", "halol" baholari, qoidaga zid ravishda harakat qilinganda esa "tanbeh", "dakki", "g'irrom" so'zlarining aynan o'zbek tilidagi ko'rinishlari qabul qilinganligining o'zi ham bu sport realiyasi bizning zaminimizda vujudga kelganligini xalqaro hamjamiyat ham e'tirof etganligini bildiradi.

Yana bir o'zbek milliy sport realiyasi bu "lanka". Ushbu sport realiyasi o'g'uz dialektida "langi" deb yuritiladi. Bunda adabiy tildagi "lanka" so'zi harf almashinish fonetik hodisasiga uchrab talaffuz qilinadi. Ya'ni, "Lanka" so'zidagi "k" undoshi - "g" undoshiga, "a" unlisi - "i" unlisiga almashinadi. Asosan lanka sport realiyasi langi tarzida Urganch, Xonqa, Xazorasp, Xiva, Qo'shko'pir va Qoraqalpog'istonning o'g'uz shevasida gaplashuvchi To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlarida keng tarqalgan.

Lanka bir necha asrlar mobaynida xalq sayillarida, "Navro'z" bayramlarida muntazam ravishda o'ynalib kelingan. Bu o'yin qo'yning bir parcha junli terisiga metall parchasi mahkam bog'langan anjom bilan o'ynalgan. Bu anjom "Tepki", tepadigan shaxs esa "Tepkichi" deb ataladi. Bugungi kunda birorta o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak-ki, "lanka" sport o'yinini umrida bir marotaba o'ynab ko'rmagan. Qadimdan mazkur o'yinni o'zbek mahallalarida yosh-u qari birdek sevib o'ynab kelishgan. Chunki, "lanka" o'yini maxsus joy yoki asbob-anjom talab qilmaydi.

"Lanka" atamasining kelib chiqishini tarixchilar turlicha izohlaydi. Ba'zilar uni xitoycha "lyan-ga" so'zi bilan bog'lasalar, ba'zilar esa forsiy "lang-oqsoq" ma'nosi bilan ifodalaydi. Shuningdek bugungi kunda dunyoning turli qit'a va o'lkalarida o'yinning futbol fristayl, votan fristayl, soks, futbeg, dja kau, cuzyuy, teeeg, larong sipa, keban kabi 30 dan ortiq nomdagi ko'rinishlarini uchratamiz. Biroq ular mohiyatan "lanka" reliyasiga juda yaqin.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz mavzusi o'g'uz dialektida sportga oid realiyalar bo'lganligi bois, endi dialekt tushunchasi va o'g'uz dialektiga to'xtalib o'tamiz. Dialekt so'zi grekcha so'z bo'lib, "sheva" degan ma'noni anglatib,

aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi. O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan, ya'ni qarluq, qipchoq va o'g'uz. Shular ichida tadqiqotimiz obyekti bo'lmish o'g'uz dialekti O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlarida, shuningdek, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshovuz, Qozoqistonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent qishloqlarida keng tarqalgan. Hozirgi Ozarbayjon va Turkiya davlati tili va shevalari ham o'g'uz dialektining o'g'uzsaljuq guruhiga mansub hisoblanadi. Atoqli olim va etnograf Beruniy (973-1048) taxminan 1000-yillarda Xorazmda yozgan „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“ asarida hayvonlarning turkiy nomlarini keltirgan bo'lib, ular Xorazmning turkiy aholisi tomonidan qo'llanilgan: sichkan, od, leopard, jerboa, lui, ilon, yunt, kuy, pijin, tagigu, tunguz. Beruniy ushbu asarida shuningdek, asarida turkiy tilda oy nomlarini beradi: Ulug'-oy, Kichik-oy, Birinchi-oy, Ikkinchi-oy, Uchinchi-oy, Turtinchi-oy, Beshinchi-oy, Oltinchi-oy, Yetinchi-oy, Sakkizinchi-oy, tokkuzinchi-oy, uninchi-oy.

Xorazmliklarning bir qismi gaplashadigan til XIII asrda allaqachon ikkinchi tilga aylanadi. XIV asrda xorazm tilini turkiy tilga almashtirish jarayoni yakunlanadi. XX asrga kelib esa, o'g'uz tillari va ayrim tillarning o'g'uz lahjasida gaplashuvchilarining soni 77-78 mlndan ortiqroq (o'tgan asrning oxirlari) kishini tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar. Realialarni o'rganish, tadqiq qilish va ularni tahlil qilish ma'lum bir tilni mukammal o'rganish uchun alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, ma'lum bir til amalida bo'lgan davlatda uning madaniyatini ham o'rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirib borish, til o'rganish jarayonini sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Aynan realiyalar va shevaga xos so'zlar tilning lug'at boyligi, uning frazeologik qatlami, lingvomadaniy birliklarining mazmun-mohiyatini boyitishda va yoritishda muhim birliklar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. S.Ashirboyev. "O'zbek dialektologiyasi", Toshkent – 2011.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.Международные отношения, 1975.
3. Usmanova.Sh. Lingvokulturologiya, darslik. Toshkent - 2019.
4. Qutbiddinova.N.R "Realia tushunchasi va uning tilshunoslikda o'rganilishi", Oriental Renaissance: Innovative, educational, nature and social sciences. 3(3). March, 2023
5. Gov.uz internet sayti "Milliy sport turlari"